

BOLALAR VA O'SMIRLAR ORASIDA ENDOKRIN TIZIM BUZILISHLARI FONIDA SEMIZLIK RIVOJLANISHINING KLINIK XUSUSIYATLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15354014>

D. Y.Yaxshibayevna, B. Abdullayeva, Sh.S.Safaraliyeva

Annotatsiya

Maqolada bolalar va o'smirlarda semirishning endokrin sabablari, uning hipotiroidizm, insulin qarshiligi, giperkortisizm va boshqa endokrin kasalliklar fonida rivojlanish xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, semirishning klinik ko'rinishlari, diagnostikasi va oldini olish usullari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar

Semizlik, endokrin tizim, hipotiroidizm, insulin qarshiligi, bolalar salomatligi.

Аннотация

В статье рассматриваются эндокринные причины ожирения у детей и подростков, особенности его развития на фоне гипотиреоза, инсулинорезистентности, гиперкортицизма и других эндокринных нарушений. На основании результатов исследования обсуждаются клинические проявления, диагностика и профилактические подходы к ожирению.

Ключевые слова

Ожирение, эндокринная система, гипотиреоз, инсулинорезистентность, здоровье детей.

Abstract

The article considers the endocrine causes of obesity in children and adolescents, the features of its development against the background of hypothyroidism, insulin resistance, hypercortisolism and other endocrine diseases. According to the results of the study, the clinical manifestations, diagnostics and methods of prevention of obesity are discussed.

Keywords

Obesity, endocrine system, hypothyroidism, insulin resistance, children's health.

Dolzarlbli : So'nggi yillarda bolalar orasida semizlikning keskin oshishi butun dunyo sog'liqni saqlash tizimi oldida jiddiy muammoga aylandi. Semizlik nafaqat ortiqcha tana vaznini, balki ichki organlar, endokrin yurak-qon tomir tizimi faoliyatidagi o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, endokrin kasalliklar bilan bog'liq semizlik hollari ko'plab klinik xususiyatlarga ega bo'lib, erta tashxis qo'yilmasa, og'ir oqibatlariga olib keladi. Semizlik va endokrin kasalliklar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bolalar va o'smirlar orasida tobora ortib bormoqda, bu esa zamonaviy pediatriyada muhim dolzarb masalalardan biridir.

Semizlik va endokrin tizim o'zaro bog'liqligi.

Endokrin tizim gormonlar orqali modda almashinuvini, energiya balansini va o'sishni boshqaradi. Gormonlar disbalansi holatida metabolism sekinlashadi va yog' to'plashiga olib keladi. Bolalar va o'smirlar bu jarayonga ayniqsa sezuvchan. Semizlik endokrin tizimning bir qator buzilishlari bilan bevosita bog'liq, shuning uchun semizlikni davolashda faqat jismoniy faollik yoki ovqatlanishni yaxshilashdan tashqari, endokrin tizimning ishlashidagi o'zgarishlar semizlikni yanada kuchaytirishi mumkin, chunki o'sish jarayonida gormonlar sezilarli darajada o'zgaradi.

Semizlikning asosiy endokrin sabablari.

a) Gipotiroidizm- qalqonsimon bezning kam faoliyat ko'rsatishi, bu metabolismning sekinlashishiga olib keladi. Tadqiqotlarda bolalar gipotiroidizm bo'lgan 120 nafar boladan 63% I semizlik bilan kasallanganligi aniqlangan. Gipotiroidizm, shuningdek, bolalarning quruq teri, ich qotishi, ortiqcha uyquchanlik kabi simptomlari bilan birga keladi. Metabolizm sekinlashishi natijasida tana vazni ortadi. Bu holatni o'z vaqtida davolash bo'lmasa, semizlik va boshqa metabolik kasalliklar rivojlanishi mumkin.

b) Insulin rezistentligi- bolalarda semizlikning eng keng tarqalgan sababi hisoblanadi. Insulin rezistentligi natijasida qonda yuqori darajada insulin mavjud bo'lib, bu semizlikni keltirib chiqargan. 2021-yilda o'tkazilgan epidemiologic tadqiqotlarda 15-17 yoshdagi o'smirlarda insulin rezistentligi bo'lganlarning 45% I semizlikdan aziyat chekkanligi aniqlangan. Insulin rezistentligi organlarga to'g'ri ishlashga imkon bermasdan, qondagi qand miqdorining ortishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida semizlikni rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insulin rezistentligi semizlikka olib kelish uchun kata xavf omilidir, ayniqsa, o'smirlik davrida.

c) Giperkortitsizm (Cushing sindromi) -bo'lgan bemorlarda semizlik va boshqa metabolic kasalliklar rivojlanadi. 2020- yilda o'tkazilgan tadqiqotda Cushing sindromi bilan og'rikan 50 nafar o'smirning 40% I semizlikka chalinishi kuzatilgan. Bunda o'smirlarning yuzlarida yumaloqlashish, bo'yning qisqarishi va

mushaklarning zaiflashuvi kabi belgilar ham aniqlangan. Giperkortitsizmning asosiy sababi yurak usti bezlarining haddan tashqari kortizol ishlab chiqarishidir. Kortizol orzinzimda ortiqcha yog' to'planishiga, shu bilan birga, suyaklar va mushaklarning zaiflashishiga olib keladi.

d) Leptin –to'likni, ghrelin esa ochlikni boshqaruvchi gormonlardir. Leptin va ghrelin gormonlari o'rtasidagi disbalans semizlikka olib kelishi mumkin. Bolalarda leptin darajasining oshishi, ghrelin darajasining kamayishi semizlikni keltirib chiqaruvchi asosiy omil ekanligi aniqlangan. Leptin darajasining oshishi to'qlik hissinı kamaytiradi va ovqatni ko'proq iste'mol qilishga olib keladi. Shuningdek, ghrelin gormoni ochlikni oshirib, haddan tashqari ovqatlanishga sabab bo'ladi.

Klinik belgilari va tashxis.

Semizlikning endokrin sabablari bo'lgan bolalarda quyidagi klinik belgilari kuzatiladi:

Gipotiroidizm: quruq teri, sovuqqa sezuvchanlik, uyquchanlik, yurakning sekin urishi, ortiqcha vazn.

Insulin rezistentligi: tez yorilish, tezda ochlik hissi, diadetga aloqador alomatlar (ko'p siydik chiqarish, suvsizlanish).

Giperkortitsizm: yuzning yumaloqlashuvi, oshqozon bo'shlig'ida yog' to'planishi, mushaklar zaiflashuvi, siydikda qand mavjudligi.

Leptin va ghrelin disbalansi: doimiy ochlik hissi, ortiqcha ovqatlanish, ovqatni tezda yutish.

Tashxis uchun qon tahlillari, qalqonsimon bez ultratovush tekshiruvi va insulin, leptin, ghrelin darajasini o'lchash zarur.

Endokrin tizimga bog'liq semizlikni oldini olish uchun quyidagi choralar tavsiya etiladi:

Sog'lom ovqatlanish va jismoniy faollik: Shirinliklar, yog'libovqatlar va tez tayyorlanadigan ovqatlarni kamaytirish. Kengashda o'rta darajadagi yog'lar va oqsillarga boy ovqatlarni iste'mol qilish. Maktabda va uyda muntazam jismoniy mashqlarni amalga oshirish. Yigirma daqiqalik yurishlar, sport o'yinlari tashkil etish.

Gormonal terapiya: Endokrin tizimdagi buzilishlarni bartaraf etish uchun kerakli dorilarni tayinlash.

Psixologik qo'llab quvvatlash: Psixologlar bilan maslahatlashish, bolalar va o'smirlarning o'zini hurmat qilishini rag'batlantirish.

Xulosalar: Endokrin tizimga bog'liq semizlikning oldini olishda kompleks yondashuv zarur. Semizlikning endokrin sabablari bo'lgan bolalarda erta tashxis va davolash, sog'lom ovqatlanish va jismoniy faollikni rag'batlantirish orqali

kasalliklarning oldini olish mumkin. Boshqa jismoniy kasalliklarning oldini olish uchun endokrin tizimning holatini nazorat qilish zarur. Ota-onalar, shifokorlar va pedagoglar birgalikda ishlashi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Semizlikni davolash multidisiplinar yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu endokrinolog, pediater, ovqatlanish bo'yicha mutaxassis, jismoniy faollik bo'yicha murabbiy va psixolog ishtirokida olib borilishi lozim. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish, doimiy monitoring, psixologik qo'llab quvvatlash, oila bilan ishlash bularning barchasi davolash jarayonining muhim bo'g'inlaridir.